

Shoista Muratova
Samarkand State Medical University,
PhD, Associate Professor

Shoista Muratova,
 Samarqand davlat Tibbiyot universiteti, p.f.d dotsenti

THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL ROLE OF THE FAMILY IN SOCIETY

Abstract: This article analyzes the socio-psychological role and significance of the family in society. As a fundamental unit of society, the family functions as an important social institution that ensures the upbringing of individuals, the preservation of moral values, and the continuity between generations. The article focuses on the role of the family in personality development and the process of socialization, the stability of the psychological environment, and the impact of family relationships on societal progress. Additionally, it discusses contemporary challenges facing the institution of the family and explores potential solutions.

Keywords: family, society, social relations, psychological environment, social institution, family upbringing, mental health, family values, social stability, social functions, personality development, parental responsibility, psychological harmony, strong family.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ СЕМЬИ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация: В данной статье анализируется социально-психологическая роль и значение семьи в обществе. Семья, как основное звено общества, выступает важным социальным институтом, обеспечивающим воспитание человека, сохранение нравственных ценностей и связь между поколениями. В статье уделяется внимание роли семьи в формировании личности и процессе социализации, устойчивости психологической среды, а также влиянию семейных отношений на развитие общества. Кроме того, рассматриваются современные проблемы института семьи и пути их решения.

Ключевые слова: семья, общество, социальные отношения, психологическая среда, социальный институт, семейное воспитание, психическое здоровье, семейные ценности, стабильность в обществе, социальные функции, развитие личности, ответственность родителей, психологическая гармония, крепкая семья.

JAMIYATDA OILAINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK O'RNI

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyatda oilaning ijtimoiy-psixologik o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Oila — jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida inson tarbiyasi, axloqiy qadriyatlarning saqlanishi va avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Unda oilaning shaxs shakllanishidagi va ijtimoiylashuv jarayonidagi roli, psixologik muhitning barqarorligi, hamda oilaviy munosabatlarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, zamonaviy sharoitda oila instituti oldida turgan muammolar va ularni hal etish yo'llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zi: oila, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, psixologik muhit, ijtimoiy institut, oilaviy tarbiya, ruhiy salomatlik, oilaviy qadriyatlar, jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy funktsiyalar. shaxs rivojlanishi, ota-ona mas'uliyati, psixologik hamjihatlik, mustahkam oila.

Kirish

Har qanday jamiyatning barqarorligi, taraqqiyoti va ma'naviy yuksalishida

oilalar muhim o'rin egallaydi. Oilalar – bu jamiyatning eng qadimiy va eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, unda inson ilk bor ijtimoiylashadi, ma'naviy-me'yoriy qadriyatlarni o'zlashtiradi va shaxs sifatida shakllanadi. Oilalar nafaqat biologik avlodlar davomiyligini ta'minlaydi, balki unda jamiyatning madaniyati, urf-odatlar va qadriyatlari avlodlar avlodga uzatiladi.

Zamonaviy davrda oilaning ijtimoiy-psixologik o'rnini yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot oqimi, globalizatsiya jarayonlari, turmush tarzidagi o'zgarishlar oilaning ichki muhitiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, oilaviy munosabatlarni o'rganish, undagi psixologik muhitni tahlil qilish va sog'lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Ushbu mavzuda oilalar institutining jamiyatdagi funksiyalari, uning psixologik iqlimi, tarbiyaviy roli va zamonaviy tahdidlar sharoitida duch kelayotgan muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, sog'lom oilaviy munosabatlarni mustahkamlash yo'llari ham yoritib beriladi.

Jamiyatning asosiy tayanchi va eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bu – oiladir. Oilalar insonning tug'ilishi, tarbiyalanishi, shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatda o'z o'rnini topishida beqiyos rol o'ynaydi. U nafaqat biologik, balki ijtimoiy-psixologik jihatdan ham inson hayotining markazida turadi. Shu bois, oilaning jamiyatdagi o'rnini va uning ijtimoiy-psixologik funksiyalarini o'rganish hozirgi davrda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi globallashtirish va axborot texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir paytda oilaning an'anaviy funksiyalarida muayyan o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu esa o'z navbatida, yoshlarning axloqiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Oilalar a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, tarbiya jarayoni, emotsional muhit va kommunikatsiya shakllari ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan alohida o'rganilishi zarur bo'lgan masalalardandir.

Mazkur maqolada oilaning jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik o'rnini, uning asosiy funksiyalari, zamonaviy muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy

jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – oilaning shaxs rivojiga va jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatadigan ta’sirini aniqlash hamda uning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini yoritishdan iboratdir.

ASOSIY QISM

Oila – jamiyatning eng qadimiy va muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, u nafaqat yangi avlodni dunyoga keltiradi, balki uni tarbiyalaydi, unga ijtimoiy qadriyatlarni singdiradi va ijtimoiylashuv jarayonining boshlang‘ich nuqtasini tashkil etadi. Har qanday jamiyatda oilaning ijtimoiy-psixologik o‘rni uning ijtimoiy tizimdagi asosiy vazifalari, ichki munosabatlari, axloqiy me’yorlar va an’analar orqali aniqlanadi.

Oilaning ijtimoiy funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

- **Reproduktiv funksiyasi** – avlodni davom ettirish;
- **Tarbiya funksiyasi** – farzandlarga ijtimoiy normalarni o‘rgatish, ularni jamiyatga moslashtirish;
- **Iqtisodiy funksiyasi** – moddiy ehtiyojlarni ta’minlash va qo‘llab-quvvatlash;
- **Emotsional-psixologik funksiyasi** – a’zolar o‘rtasidagi hissiy yaqinlik, ruhiy ko‘mak va barqarorlikni ta’minlash;
- **Madaniy-funksional rol** – jamiyat qadriyatlarini avloddan-avlodga o‘tkazish, milliy identitetni mustahkamlash.

Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, oila inson shaxsining shakllanishida beqiyos rol o‘ynaydi. Oiladagi psixologik iqlim, ya’ni ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi muloqot sifati, ishonch darajasi, mehr-muhabbat va hurmatga asoslangan munosabatlar bolalarning ruhiy sog‘lig‘i, o‘z-o‘ziga baho berishi, ijtimoiy faolligi va kelajakdagi munosabatlariga bevosita ta’sir qiladi. Oilaviy muhitda sog‘lom ijtimoiy-psixologik iqlim mavjud bo‘lsa, bu farzandlarning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar, globallashuv, iqtisodiy bosimlar, axborot oqimining kuchayishi, an’anaviy qadriyatlarning erkin

individualizmga o‘rin bo‘shatishi kabi omillar oilaning psixologik barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ajralishlar sonining ortishi, ota-onaning tarbiyadagi faolligining pasayishi, emotsional befarqlik va zo‘ravonlik holatlari oila institutining barqarorligiga tahdid solmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar oilaning ichki resurslarini kuchaytirish orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, oilaviy psixologik maslahatlar, emotsional savodxonlikni oshirish, kommunikatsion ko‘nikmalarni rivojlantirish, qadriyatlar asosida mustahkam oilaviy modelni shakllantirish orqali oila tizimini barqarorlashtirish mumkin.

Oilaning ijtimoiy-psixologik barqarorligi – jamiyat barqarorligining kafolatidir. Shu bois, oilani mustahkamlashga qaratilgan psixologik va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish hozirgi davrning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o‘rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog‘lomligiga bog‘liq bo‘lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir. Har bir oilaning sog‘lom bo‘lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishida, davlatning iqtisodiyoti, ijtimoiy hayot taraqqiyotini ta‘minlovchi, hal qiluvchi omil bo‘lgan inson kamolotida oilaning tutgan o‘rni beqiyosdir.

O‘zbekistonda oila mustahkamligini ta‘minlash, uning ijtimoiy funktsiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, oilaning farzand tarbiyasidagi nufuzini oshirishga ko‘maklashish hamda yosh er-xotinlarning moddiy, uy-joy, maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash borasidagi aniq dasturiy tadbirlar mamlakatimizda oila va nikoh munosabatlarining qadriyat sifatida e‘tirof etilishini ta‘minlamoqda.

O‘zbekiston hukumati mamlakatimizdagi oilalar, xotin-qizlar va bolalarning huquq va manfaatlarini xalqaro huquq me‘yorlari doirasida himoya etilishini ta‘minlash maqsadida o‘ndan ziyod xalqaro huquqiy hujjatlarni (Konventsiya,

Deklaratsiya va v.h.) ratifikatsiya qildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1. Oilaviy institutlar nazariyasi. Oila jamiyatning eng qadimiy va asosiy institutlaridan biri bo'lib, uning ijtimoiy va psixologik jihatlari sotsiologlar va psixologlar tomonidan keng o'rganilgan. T. Parsons (1955) oilaning jamiyatdagi asosiy funksiyalaridan biri sifatida ijtimoiylashtirish va hissiy qo'llab-quvvatlashni belgilaydi. U oilani "shaxsni ijtimoiy institutlar bilan bog'laydigan ko'priq" deb ataydi.

2. Psixologik jihatlar

Erkak va ayol rollarining psixologik talqini, bolalarning shaxsiy rivojlanishiga oilaning ta'siri L. S. Vygotskiy, A. N. Leontyev, va D. B. Elkonin kabi rus psixologlarining asarlarida chuqur yoritilgan. Ularning fikricha, bola shaxs sifatida shakllanishida yaqin ijtimoiy muhit — avvalo oila — hal qiluvchi rol o'ynaydi.

3. O'zbek olimlarining yondashuvi

O'zbekistonlik olimlardan M. Jo'rayev, S. Turaev, va M. G'aniyevlarning tadqiqotlarida oila ijtimoiy barqarorlik va milliy qadriyatlarni saqlashdagi o'rni yoritilgan. Ular oilani madaniy me'rosning asosi deb baholaydilar.

4. Hozirgi davrdagi oilaviy muammolar

Hozirgi globallashtirish sharoitida oilaning ijtimoiy-psixologik strukturasi sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. A. Giddens (1992) zamonaviy jamiyatda "toza munosabatlar" konsepsiyasini ilgari suradi, ya'ni oila endi an'anaviy asoslarda emas, balki shaxsiy ehtiyoj va qoniqish asosida shakllanmoqda.

5. Amaliy tadqiqotlar

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sotsiologiya instituti va boshqa ilmiy muassasalar tomonidan oila va yoshlar muammolariga oid sotsiologik so'rovnomalar o'tkazilgan. Ushbu tadqiqotlarda nikoh yoshining ortishi, ajralishlar sonining ko'payishi, otalarning farzandlar tarbiyasidagi ishtiroki kabi muammolar ko'tarilgan.

Abdullayeva Z. (2019). "Oila psixologiyasi" - ushbu asarda oila ichidagi

psixologik munosabatlar, oilaviy nizolarning sabablari va ularni hal etish usullari chuqur yoritilgan. **Karimov I.A. (2002). "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch"** - kitobda ma'naviy tarbiya va oila muhitining shaxs rivojlanishidagi ahamiyati ta'kidlangan. **Parsons T. (1955). "The American Family: Its Relations to Personality and the Social Structure"** - bu asarda oila ijtimoiy institut sifatida tahlil qilinadi, uning shaxsiyatga ko'rsatadigan ta'siri sotsiologik nuqtai nazardan baholanadi. **Bronfenbrenner U. (1979). "The Ecology of Human Development"** - oila inson taraqqiyotining eng muhim ijtimoiy muhiti sifatida ko'rib chiqiladi. Psixologik iqlimning bola rivojlanishiga ta'siri chuqur tahlil qilingan. **Ravshanov A. (2021). "Zamonaviy oilaning psixologik muammolari"** - O'zbekiston sharoitida oilalarda uchraydigan zamonaviy psixologik muammolar tahlil qilingan

Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan nochor oilalarni, nogironlar, yetim-esirlar, yolg'iz keksalar, bemorlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilada jamiyat talablariga mos komil insonlarni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar butun dunyo xalqlarining diqqat-e'tiborida bo'lmoqda.

Metodologik tahlil. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – jamiyatda oilaning ijtimoiy-psixologik o'rni va uning jamiyat hayotidagi funksiyalarini aniqlashdir. Tadqiqotda quyidagi vazifalar bajarildi:

Oila va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tahlil qilish;

Oilaning ijtimoiy-psixologik funksiyalarini aniqlash;

Jamiyatda oilaning muammolari va ularni hal etish yo'llarini o'rganish.

Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llandi:

Nazariy tahlil – mavjud ilmiy manbalar va adabiyotlar o'rganildi;

Empirik tadqiqot – intervyu va so'rovnomalar yordamida ma'lumotlar yig'ildi;

Statistik tahlil – olingan ma'lumotlar kvantitativ usullar yordamida tahlil qilindi.

Namuna va ma'lumotlar yig'ish: Tadqiqot uchun 200 nafar turli yoshdagi va ijtimoiy qatlamdagi respondentlar tanlandi. Ma'lumotlar intervyu va onlayn so'rovnomalar orqali to'plandi. Tadqiqot Markaziy Osiyo hududida 2024 yil yozida o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari: Oila va jamiyat munosabatlari. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar va o'zgarishlar oila tizimiga bevosita ta'sir qiladi. Aksincha, mustahkam oilaviy munosabatlar jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Oilaning ijtimoiy-psixologik funksiyalari. Respondentlarning 85% i oilani shaxsiy psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashish uchun asosiy manba deb hisoblaydi. Bundan tashqari, oila qadriyatlarini avloddan avlodga uzatishda, jamiyatning madaniy va axloqiy normativlarini mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Muammolar va tavsiyalar. Tadqiqot davomida oilalarda psixologik stress, kommunikatsiya qiyinchiliklari va iqtisodiy muammolar aniqlangan. Bu muammolarni bartaraf etish uchun psixologik yordam xizmatlarini kengaytirish, oilaviy qadriyatlarini tiklash va jamiyatdagi ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish tavsiya etiladi.

Bugungi kunda ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalarning asosiy qismini yosh oilalar tashkil etadi. 2007 yilning 18 may sanasida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tomonidan imzolangan "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3878-sonli Farmoni o'ta muhim tarixiy hujjat bo'lib, u yurtimizdagi jami 6,5 milliondan ziyod oilalarning, jumladan, bir milliondan ortiq yosh oilalarning manfaatlarini himoya qilmoqda. Farmonga muvofiq, yosh oilalarga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishlari, boshlashlari, uy-joy qurish, ta'mirlash va sotib olish, uy xo'jaligini yo'lga qo'yish, uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan zarur buyum va mebel mahsulotlarini xarid qilishlari uchun tijorat banklari tomonidan imtiyozli shartlar asosida ipoteka, iste'mol va mikro kreditlar ajratildi.

Ayni paytda Farmonga ko'ra, yosh oilalarga katta soliq imtiyozlari ham berildi. Xususan, yosh oila a'zolari, ya'ni, er va xotinning yoshi 30 yoshdan oshmagan, birinchi marta rasmiy nikohdan o'tganlarga jismoniy shaxslar sifatida shaxsiy uy-joy yoki ko'p qavatli uyda xonadon sohibi bo'lish uchun olingan ipoteka kreditlari va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgan kredit summasi hamda xo'jalik sub'ektlari – ish beruvchidan uy-joy sotib olish uchun olingan mablag' soliqqa tortiladigan daromadlariga kirmaydigan bo'ldi.

Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, xo'jalik sub'ektlariga daromad solig'i yoki yagona soliq to'lovini hisoblashda soliqqa tortiladigan bazani yosh oilalar toifasiga kiruvchi shaxslarga ipoteka krediti badallari to'lashga va mulk sifatida uy-joy sotib olishga tekin berilgan mablag'lar so'mmasiga teng hajmda, ammo soliqqa tortiladigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda kamaytirish huquqi berildi. Bugun yosh oilalarga berilayotgan cheksiz e'tibor, avvalo, ularning ertangi kungi baxt-saodati to'g'risida qayg'urishgina bo'lib qolmay, balki Vatanimiz istiqboli uchun qayg'urishning yorqin namunasidir. Zero, yoshlarni fidoyiligi, o'zi tanlagan kasbiga mas'uliyati, nikohga bo'lgan to'g'ri munosabati, avvalo, Vatan, qolaversa oilani mustahkamlashni, har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishni ta'minlaydi.**Xulosa**

Jamiyatda oila nafaqat ijtimoiy institut sifatida, balki insonning psixologik barqarorligini ta'minlovchi muhim asos hisoblanadi. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, mehr-muhabbat va hamjihatlik shaxsning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, uning ijtimoiy moslashuvini osonlashtiradi. Shu bilan birga, oila jamiyatdagi madaniy qadriyatlarning, urf-odatlar va an'alarining saqlovchisi sifatida faoliyat yuritadi. Oilaning mustahkamligi va sog'lom muhit yaratilishi jamiyatning umumiy ijtimoiy barqarorligi va farovonligiga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun, davlat siyosati va jamiyat tomonidan oila institutini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Shaxsni o'rab turgan muhitda jamiyat barqarorligi va rivojlanishida oila muhim

ijtimoiy institut sifatida markaziy o‘ringa ega. Oila nafaqat shaxsiy va hissiy qo‘llab-quvvatlash manbai, balki jamiyatning psixologik muhitini shakllantiruvchi asosiy omildir. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, oila a‘zolari o‘rtasidagi muloqot, qadriyatlar va hissiy bog‘liqlik shaxsning ijtimoiy moslashuvi va psixologik barqarorligiga xizmat qiladi. Shu sababli, oila jamiyatda o‘zining ijtimoiy va psixologik funksiyalarini to‘liq bajarsa, u jamiyatning umumiy salomatligi va taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ayni vaqtning globalizatsiya, urbanizatsiya va texnologik rivojlanish jarayonlari oilaning an’anaviy tuzilmasiga va funksiyalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu munosabat bilan oilaning ijtimoiy-psixologik roli ham o‘zgarib, yangi muammolar va ehtiyojlar paydo bo‘lmoqda. Oila institutini qo‘llab-quvvatlash, uning ichki psixologik muhitini mustahkamlash va oilaviy qadriyatlarni asrash jamiyat uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

oilalarning ijtimoiy-psixologik jihatdan juda muhim o‘rin tutadi. Oila — insonning asosiy ijtimoiy mikro-muhiti bo‘lib, unda shaxsning shaxsiyati shakllanadi, psixologik barqarorlik va ijtimoiy qobiliyatlar rivojlanadi. Oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar, mehr-muhabbat, o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlash jamiyatdagi barqarorlik va taraqqiyotning poydevorini yaratadi.

Shuningdek, oila jamiyatda ijtimoiy rol va majburiyatlarni o‘rganish, axloqiy qadriyatlar, madaniyat va an’analarni avloddan-avlodga yetkazish vositasi hisoblanadi. Oila psixologik xavfsizlik markazi sifatida stress va muammolarga qarshi tura olishda insonlarga yordam beradi.

Bugungi kunda oilaning ijtimoiy-psixologik ahamiyati yanada oshib bormoqda, chunki murakkab ijtimoiy muhitda oila a‘zolarining o‘zaro aloqalari ularning ruhiy sog‘lig‘i va jamiyatdagi moslashuvi uchun muhim omil bo‘lmoqda. Shuning uchun davlat va jamiyat tomonidan oilani qo‘llab-quvvatlash, oilaviy tarbiya va psixologik yordam tizimlarini rivojlantirish alohida e’tibor talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, oila jamiyatning eng asosiy ijtimoiy va psixologik instituti bo‘lib, uning barqarorligi va sog‘lom rivojlanishi jamiyatning umumiy

farovonligiga bevosita ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Durkheim, E. (1893). *The Division of Labour in Society*.
2. Parsons, T. (1955). *Family, Socialization and Interaction Process*.
3. Erikson, E. H. (1950). *Childhood and Society*.
4. Baumrind, D. (1967). *Child care practices anteceding three patterns of preschool behavior*.
5. Bronfenbrenner, U. (1979). *The Ecology of Human Development*.
6. Minuchin, S. (1974). *Families and Family Therapy*.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari (2024).
8. Karimova, Z. (2020). "Oila psixologiyasi". Toshkent: O'zMU nashriyoti.
9. Muratova, Sh. N. "Social aspects of preparing adolescent boys for family life," Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan, pp. 91–95, 19.00.00 No. 10.
10. Muratova Sh. N., "Scientific and theoretical basis of the problem of preparing children for family life and its state of education," Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan, pp. 82–86, 19.00.00 No. 10.
11. Muratova Sh. N. and Otan, "Place in foster care," Education, Science and Innovation, Scientific Newsletter, no. 5, pp. 82–86, 2022.
12. Muratova Sh. N., "Socio-psychological aspects of preparing boys for family life," SamDU Scientific News Release, ISSN: 2091–5446, no. 6 (124), pp. 100–105,
13. Muratova Sh. N., "The socio-psychological capabilities of premarital parents in preparing young people for family life," Scientific Journal of Psychology of BUH DU, ISSN: 2181–5291, no. 3, pp. 84–90, 2021.
14. Muratova Sh. N., "Analysis of theoretical approaches to the pedagogical and psychological education of boys in the family," NamDU Scientific News Release, ISN: 2181, no. 6, pp. 409–415, 2019.
15. Bordovskaya, N.V., & Rean, A.A. *Pedagogy: A Textbook for Universities*. – St. Petersburg: Piter Publishing, 2000. – 304 pages.
16. Kuzmina, N.V. *Methods of Research in Pedagogical Activity*. – Leningrad: Leningrad University Publishing, 1970.
17. Korotov, V.M. *Introduction to Pedagogy*. – Moscow: URAO Publishing, 2003. – 256 pages.
18. Mavlonova, R. et al. *Pedagogy: A Textbook for Students of the Faculty of Primary Education Methodology, Pedagogical Lyceums, and Colleges*. – Tashkent: O'qituvchi, 2001. – 512 pages.
19. Rean, A.A. et al. *Psychology and Pedagogy: A Textbook for Universities*. – St. Petersburg: Piter, 2001. – 432 pages.
20. Stefanovskaya, T.A. *Pedagogy: Science and Art. A Course of Lectures. A Study Guide for Students, Teachers, and Postgraduates*. – Moscow: Sovreshenstvo Publishing, 2008. – 368 pages.